

ANUSHTEGIN XORAZMSHOHLAR DAVRI TARIXI MANBASHUNOSLIGI

Tog‘aymurodova Zulayxo Fazliddin qizi

AIFU ijtimoiy fanlar kafedrasи

Tarix yo‘nalishi 2-kurs magistratura bosqichi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘rta Osiyo davlatchiligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan sulolalardan biri - Xorazmshohlar davri tarixiga oid manbalar haqida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, ushbu sulola XI asr oxiri va XIII asr boshlarida Xorazmni boshqarib, hududni iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan.

Kalit so‘z. Xorazmshohlar, “eng porloq sulola”, manba, davlatchilik, jild, asar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об исторических источниках, связанных с эпохой Хорезмишахов — одной из династий, оставивших неизгладимый след в истории государственности Средней Азии. Эта династия управляла Хорезмом с конца XI века до начала XIII века, сыграв важную роль в экономическом, политическом и культурном развитии региона.

Ключевое слово. Хорезмишахи, «самая блестящая династия», источник, государственность, том, произведение.

ABSTRACT

This article provides information about the historical sources related to the Khwarazmian dynasty, one of the dynasties that left an indelible mark on the history of statehood in Central Asia. This dynasty ruled Khwarazm from the late 11th century to the early 13th century, playing a significant role in the economic, political, and cultural development of the region.

Keywords: Khorezmshahs, "the most brilliant dynasty", source, statehood, volume, work.

KIRISH

Davlatchiligimiz tarixida Temuriylardan oldingi davrda hukmronlik qilgan, tarixda o‘zining qudrati bilan o‘chmas iz qoldirgan sulola bu – Xorazmshohlar sulolasidir. Xorazmshohlar sulolasi XI asr oxiri va XII asr boshlarida Saljuqiylar hukmronligidan qutilib, mustaqil va qudratli davlat sifatida 140 yil davomida gullab yashnagan. Shu davrlarda hukmronlik qilgan Anushtegin avlodи bo‘lgan Xorazmshohlarni V.V. Bartold “eng porloq sulola” deb atagan edi.

XII-XIII asrdagi musulmon olamidagi eng qudratli bo‘lgan Xorazmshohlar sulolasiga tadqiqotchilar katta qiziqish bildirishgan. Sababi butun musulmon o‘lkalari ichida Xorazmshohlar musulmon sharqidagi Mo‘g‘ul istilochilari hujumini birinchilardan bo‘lib qaytarishga urungan va mo‘g‘ullardan mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsada, ularning eng ko‘p dodini bergen davlat hisoblanadi.

140 yillik hukmronlik qilgan sulolaning tarixini yoritishda mustaqillikdan so‘ng birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning Jaloliddin Manguberdining 800 yilligini nishonlash haqidagi farmoni, bu sulola tarixini yanada kengroq o‘rganib, tarixiy haqiqatlarni xalqimizga yetkazish uchun ajoyib tadbir bo‘ldi. Xorazmshohlar tarixiga doir juda ko‘p manbalar mavjud. Ular orasida biz foydalana oladigan va bizga noma’lum, bugungi kunga yetib kelmagan asarlar ham bor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Xorazmshohlar tarixiga doir to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ma’lumotni o‘z ichiga olib haligacha topilmagan asarlar orasida - Muhammadiy Poyiziyning “Shahanshohnoma”, Sayyid Sadriddin Nishopuriyning “Tarixi Xorazmshohiy”, Abul Xasan Bayhaqiyuning “Mashorib ut-Tajorib”, Arslon al-Xorazmiyning “Xorazm tarixi” kabi manbalari aytib o‘tishimiz mumkin.

Bu davrga doir muhim manbalardan biri, Ibn al-Asirning “Al-Komil fi-t-tarix” asari X asrgacha bo‘lgan tarixni yoritishda garchi kompilyativ ahamiyatga ega bo‘lsada, xususiy va umumiylasalalarni o‘rganishda alohida ahamiyatga egadir¹. X asrning ikkinchi yarmidan XII asrning o‘rtalarigacha muarrix Ibn al-Asir bizga kam ma’lum bo‘lgan, yoki bizgacha yetib kelmagan ko‘pgina manbalardan foydalangan. XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, 1230-1231 yilgacha bo‘lgan davrni yoritishda Ibn al-Asirning asari birlamchi manba sifatida xizmat qiladi va uning ma’lumotlari hamda axboroti originalligi bilan ajralib turadi. Ibn al-Asir al-Jazariyning “al-Komil fi-t-tarix” asari qo‘lyozma va toshbosma shaklida, turli tillardagi tarjimasi bilan ilmda ma’lumdir. Asarning qo‘lyozmalari turli kutubxonalar xazinalarda saqlanadi. Asarning to‘la ilmiy-tanqidiy matni 1851-1876-yilda S.Tornberg tomonidan 14 jilda chop etilgan.

Asarning arabcha matni ham qayta-qayta nashrdan chiqqan. Asarning eski o‘zbek tilidagi to‘liq tarjimasi 1901-1907 yillari Xiva xoni Muhammadrahimxon Soniy Feruzning farmoniga binoan, bir guruh tarjimonlar tomonidan tarjima etilgan.

Xorazm davlatchiligi tarixining eng murakab va fojiaviy davrini yoritishda Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mankburni” (Sulton Jaloliddin Mangubertiy (yoki Mankuburni) hayotining tafsiloti) asari muhim o‘rin egallaydi. Aytish joizki, Ibn al-Asir, Nasaviy - Chingizzon, uning harbiy

¹ Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит-тарих. Полный свод истории. Введение . 16-с.

boshliqlarining yurishlari tarixini to‘la bayon etmaganlar. V.V.Bartold xulosasiga qaraganda “ular shunday bir sharoitda qolib ketganlarki, shu xavotirli zamonning faqat bir qismidan xabardor bo‘lib qolganlar, xolos”². Ibn al-Asir shu vaqtida Baynannahrayn (Mesopotamiya)da bo‘lgan va Turkistonda bo‘lgan voqealar haqida to‘liq ma’lumot ololmagan. Faqat ba’zi voqealar, aynan Buxoro va Samarqandning bosib olinishi voqeasi guvohlar tilidan bayon qilingan. Xorazmshohlar tarixini chuqurroq o‘rganishda barcha tadqiqotchilar birinchi navbatda Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mankburni” (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti) asariga yuzlanadilar. Chunki bu asardagi barcha voqealarni muallif xaqqoniy tarzda yoritib bergen.

Nasaviyning “Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din Mankburni” asari arab tilida yozilgan bo‘lib 108 bobdan iborat. Asarning ikkita to‘liq bo‘limgan qo‘lyozmasi bugungi kungacha yetib kelgan. Ulardan biri 1260-yilda yozilgan qo‘lyozmasi Parij Milliy kutubxonasida, ikkinchisi esa Britaniya muzeyida saqlanadi.

Asarning yozilish tarixi haqida muallif shunday deydi: “Men o‘tmishda yashab o‘tgan xalqlar tarixiga doir asarlarni o‘qiganimda ulardan ko‘plab ma’lumotlar oldim. Ularda insoniyat otasi bo‘lgan Odam Atodan va uning avlodlarini turli tomonlarga tarqalib ketishidan boshlab, to bizning shu kunlargacha bo‘lgan voqealarimiz qamrab olingan edi. Shunda bir narsani agladimki, har bir tarixchining asosiy maqsadi, avvalo o‘zidan oldingilarning aytganlarini takrorlash, so‘ng ularning gaplariga nimadr qo‘shish yoki olib tashlash va nihoyat o‘z davridagi voqealarni hikoya qilib berishdan iborat.

Men Ibn al-Asir nomi bilan tanilgan Ali ibn Muhammad ibn Abdulkarim insho qilgan “Al-Komil” asarini o‘qiganman. Unda turli xalqlar taqdiri ko‘plab voqealar hikoya qilinadi. Shuningdek, unda faqat ajamliklarga xos bo‘lgan g‘aroyib ma’lumotlar ham o‘rin olganki, bunday ma’lumot boshqa birorta ijodkor asarida uchramaydi. U o‘z asarini “Al-Komil fit-tarix” deb ataganiga to‘la haq edi. Uning asarini o‘qish asnosida ulug‘ sulton Alovuddunyo-vad-din Abul Fath Muhammad ibn Takish ibn El-Arslon ibn Otsiz ibn Anushtagin va uning xushbaxt o‘g‘li, dini islomni mustahkamlash yo‘liga behad aziyat chekkan Jaloliddin Manguberdi xususidagi taqdir bevafoliklari tufayli ular boshida tushgan tashvishlar, baxtsizliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ham duch keldim.

Shundan keyin o‘zimcha bunday xulosaga keldim: xaqiqatdan ham ash-Shom mamlakatida yashaydigan odamning Hindistonning eng uzoq chekkalarida,

² Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения, Т. I. -Москва: Издательство Восточной литературы, 1963. 86-с.

Xitoyning inson qadami yetishi qiyin bo‘lgan joylarda yuz berayotgan voqealarni birovlarining hikoyalari orqali yozib olishga qaror qilish ajoyib ish emasmi!”.³

2006 yili Kamol Matyoqubov mazkur asarni 1973 yildagi Ziyo Buniyatov amalga oshirilgan rus tilidagi tarjimasi asosida o‘zbek tiliga o‘girib, “Sulton Jaloldiddin Manguberdi (hayoti tafsiloti)” nomi bilan Toshkentda “O’zbekiston” nashriyotida chop etgan. Kitob tarjimonning kirish so‘zi, tarjima va izohlardan (izohlar muallifi Ziyo Buniyatov) iborat. Asar tarjimasidagi ba’zi kamchiliklar sifatida tarixiy shaxslar, joy nomlari, arab tilidagi asarlar nomlari, ba’zi istilohlarning o‘zbek tilida berilishidagi xatolarni ko’rsatish mumkin).

Bu davrga doir yana bir muhim manba hisoblanadigan asarimiz Alouddin Atomalik Juvayniy “Tarixi Jahongusho” asaridir. Juvayniyning ushbu asari mo‘g‘ullar va xorazmshohlar tarixi yoritilgan asosiy ikkinchi manba sifatida o‘rganiladi.

Alouddin Atomalik Juvayniy Markaziy Osiyo va Eron, Mo‘guliston va Xitoyning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini aks erttirgan “Tarixi Jahongusho” (1260) asari bilan shuhrat qozongan. Asar 3 jilddan iborat bo‘lib, 1-jild mo‘g‘ullar tarixi, 2-jild Xorazmshohlar tarixi va Movorounnahr va Xurosondagi mo‘gul hukmdorlari (1258 yilgacha) kechmishiga bag‘ishlangan. 3-jildda Xuloguning Eronning zabit etishi (1256-1258), Ismoiliylar davlati tarixi batafsil bayon etilgan. O‘rta Osiyo tarixi uchun asarning 1-2-qismlari alohida ahamyatga ega. Asarda muallif so‘z go‘zalligiga ahamiyat bergen. Uni uzun jumlalar, qofiyali so‘zlar, tushinilishi qiyin bo‘lgan o‘xshatishlar, turkcha mo‘g‘ulcha so‘zlar shu bilan birga Qur’oni Karimdan olingan oyatlar, hadislar maqol va matallardan foydalangan.

Atomalik Alouddin binni Bahouddin Muhammad binni Shamsiddin Muhammad Juvayniyning “Tarixi Jahongushoi Juvayniy” asarining asl nashri hijriy 658 (milodiy 1260) yilda nashr qilingan bo‘lib, ushbu nashr 1370-yildan buyon Tehronda saqlanadi.

Mazkur nashr 3 jilddan iborat bo‘lib, uning birinchi jildi Muhammad binni Abdulvahob Qavziniyning “Maxsus muqaddima”si bilan ochiladi. Muqaddima so‘nggida mazkur asarning 7 ta qo‘lyozma nusxasi va ularning tavsiflari berilgan. Muqaddimada yozilgan sana – hijriy 1330 (milodiy 1912) ko‘rsatilgan. So‘ngra asarning 1-jildi (232 sahifa) arabchada yozilgan she’rlarning izoh va tarjimalari, rasmlar izohi, nihoyat Edvard G.Brounning 1912-yil avgust sanasi ko‘rsatilgan so‘ngso‘zi (ingliz tilida 93 sahifa) keltirilgan. Ikkinchi jild ham Muhammad Qavziniyning “Maxsus muqaddima”si bilan ochiladi. Unga hijriy 1333 (1915) sanasi bilan imzo qo‘yilgan. Matndan so‘nggi izohlar, hamda indeks berilgan. Uchinchi

³ Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди хаёти тафсилоти./ Камол Матёкубов таржимаси./ - Тошкент: Ўзбекистон, 1999. 18-19-б.

jildning “Maxsus muqaddima”siga imzo qo‘yilmagan. Jilddan avval fixrist, so‘ngra matn va indeks berilgan. Kitob so‘nggida esa E.Denson Rosning ixcham so‘ng so‘zi “E.J.Gibb memorial” nashrlar ro‘yxati keltirilgan. Tehronda chop etilgan har uch jild ham hijriy-shamsiy 1370 sanasi bilan bosmadan chiqqan.

Asarning ikkinchi jildi 32 bobdan iborat bo‘lib, asosan Xorazmshohlar davlati tarixiga bag‘ishlangan. Ushbu jild asosan Xorazmshohlar davlatining kelib chiqishidan boshlanib, amir Arg‘unning katta qurultoyda ishtirok etishigacha bo‘lgan voqealarni qamrab olgan. Juvayniy mo‘g‘ullar qo‘lida xizmat qilib, xorazmshohlar siyosatiga nisbatan tanqidiy qarashda bo‘lishiga qaramay, xorazmshoh Jaloliddinning jasurligi va uning mohir sarkarda ekanligiga tan berib, uning jasoratini xolisona yoritib berishga harakat qilgan.

Xorazmshohlar mavzusi uchun eng muhim bo‘lgan to‘rtinchchi manba bu “Jome’ ut-tavorix” (“Tarixlar majmuasi”) asaridir⁴. Asarning muallifi mashhur qomusiy olim, tarixchi, tilshunos, tabib va yirik davlat arbobi Rashididdin Fazlulloh ibn Imoduddavla Abulxayr al-Hamadoniydir. Uning ota-bobolari ham o‘z zamonining o‘qimishli kishilaridan bo‘lganlar va otasi Elxoniyalar saroyida tabiblik qilgan. Rashididdin 1247 yili Hamadonda tug‘ilgan. Yoshligidan yaxshi o‘qib, ota kasbidan tashqari, ko‘pgina ilmlarni – ilohiyot, tabiiy fanlar, mumtoz adabiyot, tarix, geografiya va boshqa fanlarni puxta egallagan.

“Jome ut-tavorix” asari o‘rta asr tarixnavisligining o‘ziga xos noyob asari hisoblanadi. Bu kitob o‘rta asr Sharq tarixchiligidagi yangi an‘anani boshlab bergen asar. Unda umumiyligi tarix sifatida musulmon mamlakatlari tarixi bilan birga, G‘arb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini ham yoritishga harakat qilingan, Sharq mamlakatlari tarixini umumjahon tarixining bir qismi, deb hisoblangan.

“Jome ut-tavorix” asari 1301-1311 yillari orasida G‘ozonxonning topshirig‘i bilan yozilgan. Asar uch qismdan iborat: 1) mo‘g‘ullar va ular asos solgan davlatlar – Ulug‘ yurt, ya’ni Mo‘g‘uliston, Elxoniyalar davlati hamda mo‘g‘ullar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, Shimoliy Xitoy, O‘rta Osiyo va Yaqin hamda O‘rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo‘g‘ul istolchisigacha bo‘lgan qisqacha tarixi. 2) Sharq mamlakatlari xalqlarining islomiyotdan avvalgi tarixi, Arab xalifaligi va uning tarkibida tashkil topgan G‘aznaviyalar imperiyasi, Saljuqiylar davlati, Xorazmshohlar davlati tarixi; Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi. 3) Yer kurrasi hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati. Afsuski, asarning so‘nggi, uchinchi qismi saqlanmagan. Qo‘lyozma 1318 yili Rashididdinning shaxsiy kutubxonasi talon-taroj qilingan vaqtarda yo‘qolgan bo‘lishi mumkin.

⁴ Фазлулоҳ Рашид Ад-Дин. Джами Ат-Таварих. Баку: Нагил Эви, 2011.

“Jome ut-tavorix” asarining to‘la ruscha tarjimasi 7 nafar mo‘tabar qo‘lyozmalar asosida 1946-1960 yillari Sankt-Peterburgda amalga oshirilgan.

Bu asar bizning mavzumizga oid qismlarida Juvayniyning asaridagi ma’lumotlarni deyarli takrorlasa ham undan farqli ravishda Jaloliddin Manguberdining faoliyatiga na tanqidiy va na ijobiy baho bermagan.

Keyingi asrlarda barcha musulmon olamidagi tarixchilar o‘z asarlarida Xorazmshohlar davri tarixini keng yoritishga harakat qilganlar. O‘rta Osiyoda jahon tarixiga bag‘ishlangan barcha asarlarda Xorazmshohlar va Xorazm tarixi, shu jumladan, Jaloliddin Manguberdi haqida alohida, maxsus bayon qilinadi. Ana shunday asarlar sirasiga Yoqt Hamaviy, Sibt Ibn al-Javziy, Yosin al-Umary, Zakariy al-Qazviniy, Al-Kalkashandiy, Ibn Tiqtaqa, Ibn Tangriberdiy, Mirzo Ulug‘bek, Ibn Xollikon, Ibn Qosir, Ibn al-Ibriy, Ibn al-Vardiy, Ibn al-Amid, G‘ozi Ahmad G‘afforiy, Abulfaraj, Bayhaqiy, Mirxon, Vassof, Abulg‘oziy Bahodirxon va boshqa o‘nlab tarixchilarning asarlarini tilga olish mumkin⁵.

Ammo ularning ko‘pchiligidagi bizning asosiy masalamiz bo‘lgan Jaloliddin Manguberdi bilan bog‘liq voqealar biryoqlama aks etgan yoki bu mavzuga kam e’tibor berilgan.

Juzjoniy – Mihojiddin Abu Umar Usmon ibn Sirojuddin Muhammad o‘z asari “Tabaqoti Nosiriy”ni Dehli Sultonni Eltutmishning o‘g‘li Nosiriddin Mahmud (1246-1265)ga bag‘ishlagan. Bu asar 1260 yili yozilgan. Umumjahon tarixiga oid mazkur asarning 16-chi tabaqasida Xorazmshohlar (18 sahifada), 23-tabaqasida esa mo‘g‘ullarning bosqini haqida (62 sahifada) ma’lumot beradi⁶.

Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati, uning mo‘g‘ullarga qarshi kurashlari tarixi juda yaxshi ochib berilgan yana bir asar “Kitob nafsat al-masdur fi futuri zamon al-masdur va zamon as-sudur al-futur”dir. Mazkur manba 1930 yili Tehronda nashr etildi⁷. Eron olimi va adibi Mirzo Muhammad Qazviniy bu asarni Muhammad Zaydariga nisbat berilishi xato ekani va u an-Nasaviyga taalluqli ekanini isbotlab bergen⁸. Ammo haligacha uning muallifi kim ekanligi bahsligicha qolmoqda. Mazkur asarni eronlik tarixchi, adib va shoir Rizoqulixoni Hidoyat (1800-1871) nashrga tayyorlagan, hamda u shu olim vafotidan ancha keyin Rizoqulixonning kirish so‘zi bilan toshbosma shaklida chop etilgan (79+26 varq, kichik hajmda). “Nafsat al-masdur fi futuri zamon as-sudur va zamon as-sudur al-futur” (Zamona fatarotining

⁵ Уларнинг асарлари номлари ва таркиби ҳақида муфассал қаранг: Собрание Восточных рукописей (СВР): (История). -Тошкент: Фан, 1998. (См. разделы: Всеобщая история, История Центральной Азии. – С. 15-252).

⁶ Табақоти Носирий // Кўлёзма. Россия ФА ШИ Санкт-Петербургдаги Шарқ кўлёзмалари институти. – № С 426 (572abb). Нашри: Tabaqati Nasiri. Edited by Abdul Hai Habibi. Kabul. Vol.I. 1963. Vol II. 1964.

⁷ Нафсат ал-масдур. Ишои Шихобиддин Мұхаммад Хурандизи Насави. Тасҳих ва тавзихи дуктар Амир Ҳасан Йаздагирди. Чопи аввал. -Техрон: Тус, Китобхонайи миллии Эрон. 1381. – 948 с. (форс тилида)

⁸ Қаранг: Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. – № 11-12. – С. 121-126.

sodir bo‘lishi va fatarot sodir bo‘lishi zamoni shamolining esish ovozi) asari fors tilidagi asar sanaladi. Bu asar muallifning esdaliklari bo‘lib, unda bayon qilingan voqealarning ishtirokchisi bir guruh olimlar an-Nasaviyning o‘zi desalar, yana bir guruh olimlar bu kishi Muhammad Zaydari bo‘lgan deydilar hamda avtobiografik asar deb hisoblaydilar. “Siyrat” esa Xorazmshoh Jaloliddin haqidagi tarixiy-biografik asar hisoblanadi.

“Nafsat al-masdur”da ham huddi “Siyrat”dagi kabi muallifning boshidan kechirgan voqealari, g‘am-qayg‘ulari, taqdirini barcha tafsilotlari bilan bayon qilgan. Mazkur asar “Siyrat”dan yetti yil oldin, ya’ni 1234-1235 yillarda yozilgani ma’lum bo‘ladi.

XULOSA.

Diyorimiz tarixida o‘z ahamyatiga ega bo‘lgan davlat – Xorazmshohlar tarixini va uning tarixshunosligini o‘rganish juda muhimdir. Bu sulola davriga oid manbalar nisbatan kam o‘rganilgan bo‘lsa-da, tadqiqotchilar shu manbalar asosida ko‘plab izlanishlar olib borishdi va bu davr tarixining tarixshunosligini kengroq holda yoritishga harakat qilishdi. Manabalarni tahliliy xulosasi haqida to’xtaladigan bo‘lsak, Xorazmshohlar Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullarga qarshi olib borgan kurashlari voqealari va uning faoliyatiga bag‘ishlangan manbalarda berilgan baholar ko‘p hollarda mavhum va bahstalab mavzulardan biri hisoblanadi.

Xorazmshohlar davlati va ularning boshqaruvi siyosatiga bag‘ishlangan yoki uning tarixi qisman aks etgan tadqiqotlarni ko‘rib chiqish jarayonida shunday xulosaga kelindiki, haligacha ko‘pgina tadqiqotchilar manbalarni chuqur tahlil qilinishi va Xorazmshohlar davlatidagi Anushteginiylar sulolasininng davlat boshqaruvini yanada chuqqurroq tahlil etish, va bu davrdagi siyosatini teranroq anglashga harakat qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит-тариҳ. Полный свод истории. Введение . 16-с.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения, Т. I. -Москва: Издательство Восточной литературы, 1963. 86-с.
3. Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти./ Камол Матёқубов таржимаси./ - Тошкент: Ўзбекистон, 1999. 18-19-б.
4. Фазлуллоҳ Рашид Ад-Дин. Джами Ат-Таварих. Баку: Нагил Эви, 2011.
5. Уларнинг асарлари номлари ва таркиби ҳақида муфассал қаранг: Собрание Восточных рукописей (СВР): (История). -Тошкент: Фан, 1998. (См. разделы: Всеобщая история, История Центральной Азии. – С. 15-252).

6. Табақоти Носирий // Кўлёзма. Россия ФА ШИ Санкт-Петербургдаги Шарқ қўлёзмалари институти. – № С 426 (572abb). Нашри: Tabaqati Nasiri. Edited by Abdul Hai Habibi. Kabul. Vol.I. 1963. Vol II. 1964.
7. Нафсат ал-масдур. Иншои Шихобиддин Муҳаммад Хурандизи Насави. Тасхих ва тавзихи дуктар Амир Ҳасан Йаздагирди. Чопи аввал. -Техрон: Тус, Китобхонайи миллии Эрон. 1381. – 948 с. (форс тилида)
8. Қаранг: Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. –№ 11-12. – С. 121-126.